



TOP-CONFERENCES

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.

Zahiriddin Muhammad Boburning Ilmiy Merosi

MUSAYEVA MADINA AXMAD QIZI

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti talabasi

ANOTATSIYA

Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat buyuk sarkarda va davlat arbobi, balki yirik adib, olim va ma'rifatparvar inson sifatida ham tarixda chuqur iz qoldirgan. Uning ilmiy merosi asosan tarix, adabiyot, lingvistika, tabiatshunoslik va harbiy san'atga doir asarlarida namoyon bo'lgan. "Boburnoma" asari tarixiy va etnografik manba sifatida katta ahamiyatga ega bo'lib, unda Markaziy Osiyo, Hindiston va Erondagi ijtimoiy siyosiy jarayonlar aniq yoritilgan. Boburning she'riyati ham falsafiy va didaktik mazmuni bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada Boburning ilmiy merosi, uning o'z davrida va keyingi avlodlarga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi.

KALIT SO'ZLAR

Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma, tarix adabiyot, she'riyat, lingvistika, harbiy san'at, Markaziy Osiyo, Hindiston

Zahiriddin Muhammad Bobur O'rta asr sharq madaniyati adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan adib, shoir, olim bo'lishi bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo'lsa, serjilo o'zbek tilida yozilgan "Boburnoma" asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan mustahkam o'rin oldi. "Boburnoma" asosan Hindistonda Boburiylar saltanatini barpo etgan shoh Boburning tarjimai holi bo'lib, unda muallif oddiy va jonli til bilan o'zining yo'l qo'ygan xatolarini, qozongan g'alabalarini, yuksak orzu-umidlarini, tushkunlik holatlarini hikoya qilgan.

Mazkur kitob umri davomida ko'pdan ko'p yuksalishlar va tanazzullarni boshidan kechirgan insonning ibratli tarixidirki, uning yuksalishlari qanchalik sarbaland bo'lsa tanazzullari shunchalik tubsizdir. Bobur qirq yetti yilu o'n oy umr ko'rgan bo'lsa "Boburnoma" uning hayotidan o'n sakkiz yilni qamragan. Kitob Boburning o'z qo'li bilan turkiy tilda yozilgan. Bobur ijodiyotida ta'lim-tarbiya, odob axloq masalalari keng o'rin olgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'z asarlarida vatanparvarlikni yuksak qadriyat sifatida tasvirlaydi. Uning ijodida vatan sog'inchi, yurt obodligi, xalq farovonligi va milliy g'urur asosiy mavzulardan biri hisoblanadi. Bugungi va kelgusi avlodlarga Boburning boy ilmiy va adabiy merosini yetkazish, uning hayot yo'lini o'rganish orqli yoshlarda uning shaxsiy sifatlaridan

bo'lgan insonparvarlik hissini singdirish, ularda qahramonlik, iroda kabi sifatlarni oshirish muhim zarurat sanaladi. Bu borada Prezidentimiz, "Biz yoshlarimizni haqiqiy vatanparvarlik, azmu-shijoat, mardlik va jasorat ruhida tarbiyalashda muhtaram ziyolilarimiz, faol va fidoiy olimlarimiz hamda ijodkorlarimizning yordamiga tayanamiz. Ayniqsa buyuk sarkarda bobolarimizning hayoti va jangovor faoliyati, harbiy merosini o'rganish hamda yoshlarimiz o'rtasida targ'ib etish katta ahamiyatga egadir. Shuningdek, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi 2021-yildan boshlab, taniqli olim va ijodkorlarni jalb etgan holda, "Buyuk sarkadalarimizning jasorati va harbiy merosi" turkumida tarixiy-badiiy risolalarni tayyorlab, nashr ettirishni yo'lga qo'yishi lozim"[1] deya takidlab o'tganlar.

Shu bilan birgalikda uning nafis go'zal ruboiylari turkiy she'riyatning eng nodir durdonalari bo'lib, "Mubayyin", "Xatti Boburiy", "Harb ishi", "Aruz" haqida risolalari islom qonunshunosligi she'riyati va til nazariyasi sohalarifa munosib hissa qo'shildi.

"Mubayyin" islom dini asoslarini bayon qilishda o'ziga xosligi, mazmun ko'lamlining kengligi bilan ajralib turadi. U islomshunoslik va o'zbek adabiyoti tarixida o'zbek tilining go'zalligi va boyligini aks ettirgan diniy va badiiy adabiyotning yorqin namunasi sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Boburning islom dini aqidalari va fiqh (shariat qonunchiligi)ga oid "Mubayyin" asari (arab. mubayyin – (yo'l) ko'rsatkich; mubayyan – bayon qilingan ma'nolarini bildiradi) jami 2254 baytdan iborat bo'lib, Bobur o'g'illari Humoyun va Kamronga bag'ishlab yozgan [2].

Zahiriddin Muhammad Bobur 16-17 yoshi (1500-yil) dan boshlab badiiy ijod bilan shug'ullanadi, o'zbek va tojik tillarida she'rlar yozadi. U dastlabki she'rlarini fors tilida yozgan. Bobur asosan hajman ixcham g'azallar yaratgan, she'riy asarlarining yarmini ruboiylar tashkil qiladi. 20 yoshida "Xatti Boburiy" yozuvini kashf etgan, Xo'ja Ahromning "Volidiya" asarini she'riy yo'l bilan o'zbekchaga tarjima qilgan. O'zbekcha she'rlarini to'plab 1519-yilda Kobulda "Kobul devoni", 1528-1529 yillarda Hindistonda "Hind devoni"ni tuzgan. Bizgacha yetib kelgan she'rlarining umumiy soni 4000 dan oshadi. Shulardan 119 tasi g'azal, 231 tasi ruboiydir. Bobur lirikasining asosiy janrlari g'azal, ruboiy va tuyuq bo'lib, masnaviy, qit'a, muammo, fard kabi janrlarda ham ijod qilgan. Uning "Ey, alarkim, bu Hind kishvardin" deb boshlanadigan qit'asi uning yaqin navkarlaridan Xoja Kalon va Xoja Mirmironning Hindiston issig'iga chiday olmay Kobul tomonga ketib qolganligi munosabati bilan, "Ko'ngli tilagan murodiga yetsa kishi" deb boshlanuvchi ruboiysi Andijondan ketib, tog'-u toshlarda yurganida yozilgan. "Mening ko'nglimki", "Agarchi sensizin sabr aylamak" g'azallarida, "Beqaydman-u, xarobi siym emasmen", "Tole yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi" kabi ruboiylarida, "Bir kecha xotirim mashavvash edi" masnaviysida Boburning ziddiyatga to'la hayoti tasvirlangan. "Hajringda bu tun ko'ngulda qayg'u erdi" deb boshlanuvchi ruboiysida fojia hazil bilan beriladi. "Qoldimu?" radifli g'azali 1507-yilda Hirot Kobul yo'lida yozilgan, "Topmadim" radifli g'azali bu g'azalning yozilish tarixi "Boburnoma"da keltirilgan bo'lib, unda Samarqandni ikki marotaba qo'ldan berish iztirobi yoritilgan. "Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim" deb boshlanuvchi bu g'azalni Boburning birinchi tugatgan g'azali sifatida e'tirof etishadi. "G'urbatda ul oy hajri" g'azali esa so'ngi g'azallaridan biri sifatida taxmin qilinadi [3].

Zero, Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur» [4]. Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek davlatchiligi tarixida buyuk inson, davlat arbobi, sarkarda, buyuk ijodkor sifatida iz qoldirgan. Bobur tariximizning eng murakkab, eng jozibador, eng dramatik siymolaridan biri, bor yog'i qirq yetti yillik umri davomida jaxon

tarixidan shavkatli o‘rin olib ulgurdi. Bobur Mirzo shoir, adib, adabiyotshunos, donishmand, fiqhshunos, tilshunos, tabiatshunos va boshqa ko‘plab sohalarda yetuk bilimga ega shaxs sifatida izlangan va ma'lumotlar qoldirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. M. Insonparvarlik ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir. – T.: “Tasvir” nashriyot uyi, 2021. – B. 23.
2. Rasulova N.S. Bobur va Boburiylar saltanati. O‘quv qo‘llanma. – T.: JXU, 2021. – B. 88.
3. Sariyev Sh. Bobur merosi. Metodik qo‘llanma. – T.: “Yangi kitob”, 2018. – B.229-236.
4. Mirziyoyev Sh. M. Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma‘naviyatdir // <https://president.uz/oz/lists/view/4089>